IQTIDOR & INTELLEKT
ILMIY JURNALI

ERTAK TERAPIYASINING MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQI VA IJTIMOIY-HISSIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Mamarasulova Mehriniso Abdumajidovna,

G'allaorol tumani 1-son davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi

O'mirzoqova Gulnoz Meliboevna,

Paxtakor tumani 7-son davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi

Annotatsiya. *Maqolada ertak terapiyasining maktabgacha yoshdagi bolalar nutqi, hissiy barqarorligi va ijtimoiy moslashuviga ta'siri o'rganilgan. Ertak terapiyasining psixologik va pedagogik asoslari, maqsadlari hamda asosiy texnikalari tahlil qilingan. Katta guruh (5–6 yosh) bolalari uchun ishlab chiqilgan «Ertaklar – yaxshilikka yetaklar» mavzusidagi 25 daqiqalik integratsiyalashgan mikromashg'ulot modeli taqdim etilgan. Model ertak qahramonlari ishtirokidagi sahna ko'rinishi, she'r, topishmoq va besh rivojlantirish markazidagi amaliy faoliyatni birlashtiradi. Tadqiqot ertak terapiyasini markazlar integratsiyasi asosida tashkil etish bolalarning ifodali nutqi, axloqiy tushunchalari va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *ertak terapiyasi, maktabgacha ta'lim, nutq rivoji, hissiy intellekt, ijtimoiy moslashuv, sahnalashtirish, rivojlantirish markazlari, integratsiyalashgan mashg'ulot.*

Maktabgacha yosh bola shaxsining hissiy, ijtimoiy va nutqiy rivojlanishi uchun eng sezgir davr hisoblanadi. Bu davrda bola o'z his-tuyg'ularini anglash, ularni so'z bilan ifodalash va tengdoshlari bilan muloqotga kirishni o'rganadi. Ko'pincha bolalar qo'rquv, xavotir, g'azab yoki yolg'izlik kabi salbiy hissiyotlarni tushunish va boshqarishda qiynaladi.

O'zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi Qonuni [1] va «Ilk qadam» davlat o'quv dasturi [2] bolaning faqat bilimini emas, balki ijtimoiy-hissiy va nutqiy rivojlanishini ham ta'minlashni talab qiladi. Shu bois bolaning yosh xususiyatiga mos, o'yin va obrazli tafakkurga tayanadigan pedagogik vositalarga ehtiyoj ortib bormoqda.

Ertak terapiyasi ana shunday vositalardan biridir. Unda bola ertak qahramoni bilan o'zini identifikatsiya qiladi, uning tajribasi orqali o'z qiyinchiliklarini xavfsiz muhitda ko'rib chiqadi va ijobiy xulq namunasini o'zlashtiradi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, ertak terapiyasini maktabgacha ta'lim tashkilotining kundalik rivojlantirish markazlari faoliyatiga tizimli ravishda siңdirish metodikasi hali yetarli ishlab chiqilmagan.

Tadqiqot maqsadi – ertak terapiyasining katta guruh bolalari nutqi va ijtimoiy-hissiy rivojlanishiga ta’sirini nazariy asoslash va uni markazlar integratsiyasi asosida amalga oshirish modelini ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari:

- Ertak terapiyasining psixologik-pedagogik asoslari va asosiy tushunchalarini tahlil qilish.
- Uning maktabgacha ta’limdagi maqsad va texnikalarini tizimlashtirish.
- «Ertaklar – yaxshilikka yetaklar» mavzusida integratsiyalashgan mikromashg’ulot modelini ishlab chiqish.
- Modelning rivojlantiruvchi imkoniyatlarini tahlil qilib, amaliy tavsiyalar berish.

Adabiyotlar tahlili va nazariy asoslar

Ertak terapiyasi – bolalar va kattalarda hissiy va xulqiy qiyinchiliklarni yechishda ertak matni, obrazlari va syujetidan foydalanadigan psixologik-pedagogik usuldir [3, 4]. U XX asrda mustaqil yo’nalish sifatida shakllanib, zamonaviy psixologiya va pedagogikaning muhim vositasiga aylandi.

Usulning nazariy ildizlari bir necha yo’nalishda shakllangan:

Arxetiplar nazariyasi. K.G. Yung ertak obrazlarini jamoaviy onsizlik arxetiplarining ifodasi deb bilgan [6]. Shu bois qahramon, yordamchi va raqib obrazlari bolaga tushunarli va tanish bo’lib tuyuladi.

Ertak tuzilmasi. V.Ya. Propp ertakdagi voqealar izchil va takroriy funksiyalar asosida qurilishini ko’rsatgan [7]. Bu izchillik bolada «qiyinchilik – sinov – yechim» mantiqini shakllantiradi.

Ichki nizolarni yechish. B. Bettelxaym fikricha, ertak bolaga o’z qo’rquv va xavotirlarini ramziy shaklda ko’rib chiqish va yengish imkonini beradi [5].

Tasavvur va ijod. L.S. Выготскiy tasavvurni bolaning tajribasiga tayanadigan va uni boyitadigan jarayon deb tavsiflagan [8]. Ertak ana shu jarayonni ishga tushiradi.

T.D. Zinkevich-Yevstigneeva ertaklarni badiiy, didaktik, psixokorreksion, psixoterapevtik va meditativ turlarga ajratadi [3]. Maktabgacha ta’limda ko’proq badiiy va didaktik ertaklar qo’llaniladi. I.V. Vachkov esa psixologik ertakni o’zlikni anglashni rivojlantiruvchi vosita sifatida ko’radi [4].

IQTIDOR & INTELLEKT
ILMIY JURNALI

O’zbek tadqiqotchilari ishlarida ertakning psixologik ta’siri [9, 15, 14], maktabgacha ta’limdagi o’rni [10] va teatrlashtirilgan faoliyatning ijtimoiy-hissiy rivojlanishdagi ahamiyati [11, 12, 13] yoritilgan. Ertak terapiyasi texnikalari [16] va uning samaradorligini baholash usullari [17] ham o’rganilgan.

Adabiyotlar tahlili ertak terapiyasining uch asosiy maqsadini ajratish imkonini beradi:

Yo’nalish	Mazmuni	Natijasi
Hissiy	His-tuyg’uni tanish va so’z bilan ifodalash	O’zini anglash, xavotirning kamayishi
Kognitiv	Voqealar izchilligini va qahramon xatti-harakatini tahlil qilish	Mantiqiy fikrlash, tasavvur
Ijtimoiy	Rolli o’yin, jamoada sahnalashtirish	Hamdardlik, hamkorlik, muloqot

Amaliyotda ikki texnika asosiy hisoblanadi. Birinchisi – ertakni tanlash va tayyorlash: matn bolalar yextiyojiga moslashtiriladi, asosiy obraz va g’oya avvaldan aniqlanadi. Ikkinchisi – mashg’ulotda ertakni aytib berish yoki audiovizual shaklda ko’rsatish, so’ng savollar orqali muhokama qilish va sahnalashtirish.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot Jizzax viloyatidagi davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining katta guruhi (5–6 yosh, 30 nafar tarbiyalanuvchi) misolida loyihalandi. Asosiy metodlar: adabiyotlar tahlili, pedagogik loyihalash, kuzatish va og’zaki savol-javob. Natijalar bolalarning o’yindagi ishtiroki va javoblari orqali sifat jihatdan baholandi.

Mikromashg’ulot modeli

«Ertaklar – yaxshilikka yetaklar» mashg’uloti – yongi bilim beruvchi, o’yin asosidagi mujassam mashg’ulot bo’lib, markazlar integratsiyasi shaklida 25 daqiqa davom etadi. Uning rejasi uch qismdan iborat: o’zbek xalq ertaklarining bola tarbiyasidagi ahamiyati, «Ertaklar olamiga sayohat» va «Mening sevimli ertak qahramonim».

Mashg'ulot maqsadlari uch yo'nalishda belgilangan:

Ta'limiy: ertak voqealari rivojini tushunish, qahramon xatti-harakatini tahlil qilish, rasmga qarab ertak mazmunini so'zlab berish.

Tarbiyaviy: «yaxshilik» va «yomonlik» tushunchalarini farqlash, hamkorlik va bir-birini tinglash madaniyatini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi: og'zaki nutqni boyitish, ertakdagi ibora va yangi so'zlarni qo'llash, ijodiy va mantiqiy tafakkurni oshirish.

Bosqich	Vaqti, daqiqa	Tarbiyachi faoliyati	Bolalar faoliyati
1. Kirish	3	Hafta mavzusi va qoidalar bilan tanishtiradi, Vatanga muhabbat haqida suhbat qiladi	Tinglaydi
2. O'tilganlarni takrorlash	5	Markazlardagi ish turlarini takrorlaydi, nazariy bilim beradi	Amaliy ishlar haqida tasavvur oladi
3. Yangi mavzu	10	Ertak qahramonlari ishtirokida sahna va suhbat olib boradi	Suhbatda faol ishtirok etadi
4. Mustahkamlash	5	O'yinlar va markazlardagi amaliy ishni tashkil etadi	Markazlarda ishlaydi
5. Yakun	2	Yakun yasaydi, bolalar ishini baholaydi va rag'batlantiradi	Fikr bildiradi

Ertak qahramonlari va ularning terapevtik vazifasi

Asosiy bosqichda to'rt qahramon bolalar bilan bevosita muloqotga kiradi. Har biri o'z tajribasini so'zlab, bolalarga savol bilan murojaat qiladi. Salbiy qahramonlar ham xatosini anglagan holda chiqadi – bu bolaga o'zgarish mumkinligini ko'rsatadi.

Qahramon	Namoyon qilingan xulq	Tarbiyaviy saboq
Zumrad	Mehnatsevarlik, halollik	Yaxshilik qilish, bir-birga yordam berish

IQTIDOR & INTELLEKT
ILMIY JURNALI

Qahramon	Namoyon qilingan xulq	Tarbiyaviy saboq
Qimmat	Dangasalik va undan voz kechish	Mehnat quvonch va muvaffaqiyat keltiradi
Bo'g'irsoq	Maqtanchoqlik, xudparastlik	Kamtarlik, do'stlarni qadrlash
Tulki	Ayyorlik, aldash	Rostgo'ylik, ishonchni saqlash

Sahnadan so'ng bolalar halollik va mehnatsevarlik haqidagi she'rni jamoa bo'lib aytadi. Shundan so'ng «Tezkor savol-javob» va «Ertak qahramonini top» o'yini o'tkaziladi: tarbiyachi fazilatni aytadi, bolalar u qaysi qahramonga tegishli ekanini topadi. Shuningdek, «Sharlar» va «Singan tuxum» o'yinlari qo'llaniladi.

Rivojlantirish markazlari integratsiyasi

Mustahkamlash bosqichida bolalar besh markazda ishlaydi. Barcha markazlarni to'rt qahramon – Zumrad, Bo'g'irsoq, Qizil Shapkacha va Alpomishning yaxshi ishlari birlashtiradi. Didaktik o'yinlar «Yaxshilikni joylashtiramiz» va «Yaxshilikni topamiz» deb nomlangan.

Markaz	Faoliyat mazmuni	Rivojlanadigan ko'nikmalar
Qurish-yasash va matematika	Kubik, lego va kartondan qahramonlar yaxshiligi tasvirlangan mini-landshaft qurish	Sanash, shakl va katta-kichikni taqqoslash, jamoada ishlash
Til va nutq	Qahramonlar haqida savol-javob, rolli dialog, to'liq gap tuzish	Ifodali nutq, qisqa hikoya tuzish, muloqot
San'at	Qahramonlarni bo'yoq, plastilin va rangli qog'ozdan yasash, ishni taqdim qilish	Rang va shakl nomlari, ijodkorlik, o'z ishini baholash
Fan va tabiat	Daraxt, suv havzasi, qushlar maketlari bilan qahramonlar harakatini sahnalashtirish	Tabiatga mehr, mantiqiy fikrlash, savolga asosli javob
Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish	Qahramon, do'st va tabiat elementi rollarida kichik sahna ijro etish	To'g'ri talaffuz, hamdardlik, hamkorlik

Mashg’ulot uchun AKT vositalari, rasmli ertak kitoblari, kartochkalar, rasmli mozaikalar, qo’g’irchoq teatri va niqoblar tayyorlanadi. Monitoring og’zaki savol-javob va bolalarning o’yindagi ishtirokini kuzatish orqali olib boriladi.

Kuzatishlar ertak terapiyasi markazlar integratsiyasi asosida tashkil etilganda bolalar nutqi va ijtimoiy-hissiy faolligi sezilarli oshishini ko’rsatdi. Asosiy natijalar uch yo’nalishda kuzatildi.

Nutq rivoji. Bolalar qahramonlar xatti-harakatini to’liq gaplar bilan ifodalay boshladi (masalan, «Zumrad do’stlariga yordam berdi»). Rolli dialoglar va o’z ishini taqdim qilish bolalarda qisqa hikoya tuzish va ifodali so’zlash ko’nikmasini mustahkamladi. She’r va topishmoqlar so’z boyligini axloqiy tushunchalar (halol, rostgo’y, kamtar, mehnatsevar) bilan boyitdi.

Hissiy rivojlanish. Xatosini anglagan qahramonlar (Qimmat, Bo’g’irsoq, Tulki) bolaga salbiy xulqni qoralamasdan tahlil qilish imkonini berdi. Bu holat Bettelxaymning ertak ichki nizolarni xavfsiz shaklda yechishga yordam beradi, degan fikriga mos keladi [5].

Ijtimoiy ko’nikmalar. Guruhlarda mini-landshaft qurish va sahna ijro etish bolalarni vazifalarni taqsimlash, navbat bilan so’zlash va bir-birini tinglashga o’rgatdi. Har bir markazda bir xil qahramonlarning takrorlanishi axloqiy saboqni turli faoliyat turlari orqali mustahkamladi.

IQTIDOR & INTELLEKT
ILMIY JURNALI

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O’zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’g’risida»gi Qonuni. 16.12.2019 y., O’RQ-595.
2. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning «Ilk qadam» davlat o’quv dasturi. – Toshkent, 2022.
3. Zinkevich-Yevstigneeva T.D. Praktikum po skazkoterapii. – SPb.: Rech, 2000.
4. Vachkov I.V. Skazkoterapiya: Razvitie samosoznaniya cherez psixologicheskuyu skazku. – M.: Os-89, 2001.
5. Bettelheim B. The Uses of Enchantment: The Meaning and Importance of Fairy Tales. – New York: Knopf, 1976.
6. Yung K.G. Arxetip i simvol. – M.: Renessans, 1991.
7. Propp V.Ya. Morfologiya skazki. – L.: Academia, 1928.
8. Vыgotskiy L.S. Voobrajenie i tvorchestvo v detskom vozraste. – M.: Prosveщenie, 1991.
9. Saidova D. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ertaklar va uning psixologik ta'siri // O’zbekiston pedagogik jurnali. – 2020. – B. 19.
10. O’zbekiston Milliy universiteti. Maktabgacha ta'limda ertaklarning roli. – Toshkent: O’zbekiston Publitsistika nashriyoti, 2018. – B. 71.
11. Islomov A. Teatr o’yinlarining pedagogik afzalliklari. – Toshkent: Ta'lim va tarbiya, 2019. – B. 55.
12. Rahmatova N. Bolalarda ijtimoiy va emotsional rivojlanishni rag’batlantirishda teatr faoliyati. – O’zbekiston madaniyat va san'at instituti, 2021.
13. Yusufova M. Maktabgacha ta'limda teatr va drama metodlari. – Samarqand: Tarbiya va san'at, 2017. – B. 136.
14. Akromov S. Ertak terapiyasining psixologik asoslari. – Toshkent, 2019.